



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a33

*Davlyatova Gulnara Muxamedjanovna
Farg'onan politekhnika instituti dotsenti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanirishda sanoatning ulushi, sanoatning rivojlanishi natijasida aholi farovonlik darajasini oshirish yo'naliishlari, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, xulosalari o'r ganildi. Sanoat sohasini rivojlanishning muammolari ochib berildi va muammolarning yechimiga olib boruvchi yo'naliishlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilib, tegishli tarzda xulosa va takliflar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: sanoat, innovatsiya, investitsiya, rivojlanish, iqtisodiy o'sish, mehnat salohiyati, aholi turmush darajasi, rivojlanish, barqarorlik, hudud, mahsulot.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

*Давлятова Гулнара Мухамеджановна,
Доцент Ферганского политехнического института*

Аннотация. В данной статье рассмотрена доля промышленности в развитии экономики нашей страны, направления повышения уровня благосостояния населения в результате развития промышленности, научные теоретические взгляды, выводы зарубежных и отечественных ученых на эту тему. Были раскрыты проблемы развития промышленной сферы и даны научно-теоретические обоснования направлений, ведущих к решению проблем, приведены соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: промышленность, инновации, инвестиции, развитие, экономический рост, трудовой потенциал, уровень жизни населения, развитие, стабильность, территория, продукт.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRY IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

*Davlyatova Gulnara Mukhamedjanovna
Associate Professor of the Fergana Polytechnic Institute*

Annotation. This article studied the share of industry in the development of the economy of our country, the directions of increasing the level of welfare of the population as a result of the development of Industry, Scientific theoretical views, conclusions of foreign and domestic scientists in this regard. The problems of the development of the industrial sphere were revealed, and the directions leading to the solution of the problems were scientifically theoretically substantiated, and conclusions and proposals were made in an appropriate way.

Keywords: industry, innovation, investment, development, economic growth, labor potential, living standards of the population, development, sustainability, Territory, product.

Kirish. Har qanday mamlakatning tadrijiy jihatdan iqtisodiy rivojlanishi muayyan bosqichlarni bosib o'tishni taqozo etadi. Iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'limgan mamlakat uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevori sanoatlashish tomon qo'yilgan qadamdir. Mamlakatimizda sanoat rivojlanishi ko'plab tarmoq va sohalar taraqqiyotiga zamin bo'ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini oqilona tashkil etish iqtisodiy siyosatning muhim yo'naliishlari dan biri hisoblanadi. Mintaqalar tabiiy-iqtisodiy va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy mustaqillikka erishish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mamlakatimiz aholisi turmush darajasini yaxshilashning asosiy shartlaridan biridir.

Mamlakatimizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan **biri sanoatdir.** Sanoat o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan boshqa soha va tarmoqlardan o'z afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakatimiz sanoat tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlanirish, ularning eksport salohiyatini o'stirish, ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ichki

bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash, mavjud resurslaridan unumli foydalanish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish asosida sanoatning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga erishish mumkin.

Umuman, sanoat respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki sanoat o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingen, ekib o'stirilgan barcha resurslarni qayta ishslash, ulardan yangidan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortment va nomenklaturaning ko'payishi hisobiga diversifikasiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va uning sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning dolzarblii tadqiqotchi olimlarning ilmiy natijalarida o'z aksini topgan. Xorijlik olimlardan S.Porter, D.Deveryuks, R.Nureyev iqtisodiyotni takomillashtirishda sanoat tarmog'ining ahamiyatini keng yoritgan tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan [1].

Y.Polojensova, N.Klevsova hozirgi vaqtida sanoat rivojlanishining o'zgarishi sharoitida rivojlangan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari kengayib boradigan holatga o'tdilar va nafaqat bunday texnologiyalarni joriy etish, balki kompaniyalarga ushbu texnologiyalarning yangi ommaviy ishslash rejimida ishslashga imkon beradigan boshqaruv tizimining o'zgarishi ham kengaymoqda. Shu munosabat bilan boshqa davlatlar shu tajribani qo'llashlari keljakda sanoatning rivojlanishida poydevor bo'lishi haqida ta'kidlagan [2].

EVetrova, L.Lapochkina sanoat rivojlanishining zamonaviy nazariyasi asosiy qoidalari davlat darajasida strategik qarorlar qabul qilishda ham hisobga olinishi kerak. Sanoatni rivojlantirishning tobora kuchayib borayotgan muammolar ni nazariga va uning amaliy amalga oshirilishida ba'zi qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, sodir bo'layotgan o'zgarishlarni nazariy va amaliy jihatlarda baholash va ularni muvofiqlashtirish yo'nalishlarini aniqlash kerakligini keltirib o'tgan [3].

O'zbekiston sanoatini modernizatsiyalashning joriy holati va mavjud muammolariga bag'ishlangan hamda sanoat mehnat unumdarligining o'sishi va butun milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning texnik va texnologik asosi

ekanligini J.Q.Qurbanov o'z tadqiqotlari orqali aniqlashga harakat qilgan. Sanoat salohiyatini oshirish energiya sig'imdarligi, SO₂ chiqindisi, xorijiy investitsiyalar kabi omillarning o'zgarishlariga bog'liqligi asoslangan [4].

N.Maxmudov, S.Xomidov, N.Avazov fikricha, sanoat iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Aksariyat tadqiqotlarning mazkur fikr, aynan, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sanoatda innovatsiya va bilimlarning yangi kombinatsiyasidan foydalanish 6 imkoniyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa mehnat unumdarligi va ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi, natijada iqtisodiy o'sish ta'minlaniladi, deb keltiradi [5].

Xususan, A.Artikov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ga[6], M.P.Narziqulov "Sanoatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor – tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi"ga[7], E.X.Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari, birinchi navbatda, budget, soliq, pul-kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga[8] bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot davomida maqolada statistik tahlil, analitik tahlil, sanoat sohasi rivojlanishining ma'lumotlarning grafik tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ishimizda sanoatni rivojlantirish bo'yicha muammolar aniqlanib, qiyosiy va analitik tahlil yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammolar ochib berilib, uning yechimi sifatida tegishli tartibda xulosa va takliflar, asosiy yo'nalishlar keltirib o'tildi.

Tahlil va natijalar. Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishlaridan biri sanoat majmuyidagi tarkibiy o'zgarishlar hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va tarkibiy qayta tuzish jarayonlari bilan ifodalanadi. Mamlakat tarkibiy siyosatining bosh maqsadlaridan biri ham sanoatda tarkibiy qayta tuzishni amalga oshirish orqali O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat.

Respublika sanoatini jadal rivojlantirishda yangi zamonaviy mexanizmlarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va qo'shimcha zaxiralarni yaratish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagagi "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat

boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" [9] PF-111-sonli farmoni bilan sanoat tarmoqlarini tubdan rivojlantirish maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi huzurida Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etil-

ganligi hamda Sanoatni rivojlantirish jamg'armasiga 1 mlrd. AQSh dollari ekvivalenti miqdorida mablag' jalb qilinishi, shu jumladan 2023-2024-yillarda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 200 mln. AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi mablag'lar ajratilishi belgilandi.

1-jadval**Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi (amaldagi narxlarda; mlrd. so'm) [10]**

Hududlar/Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	148 816,0	235 340,7	322 535,8	368 740,2	456 056,1	553 265,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 773,3	10 911,9	12 736,1	13 981,3	16 630,4	17 624,7
Andijon	13 269,8	27 454,7	33 122,3	36 376,5	35 935,3	54 352,5
Buxoro	6 422,3	8 601,2	14 798,2	17 574,4	20 772,1	27 202,4
Jizzax	2 548,8	3 581,8	4 586,1	5 823,8	8 731,8	11 402,0
Qashqadaryo	10 945,9	14 529,5	20 360,1	14 612,3	18 771,9	22 624,4
Navoiy	13 072,9	22 892,4	44 438,1	65 084,9	73 633,5	84 393,7
Namangan	4 615,5	6 586,6	8 818,1	11 011,9	14 695,1	18 120,5
Samarqand	9 242,0	13 488,1	15 783,6	18 383,4	22 834,3	29 188,6
Surxondaryo	2 356,4	3 234,7	4 231,3	5 322,7	6 675,3	7 229,8
Sirdaryo	3 806,5	5 163,1	7 293,0	7 990,9	9 813,3	12 011,2
Toshkent	21 693,4	37 724,4	53 484,8	65 949,9	83 433,9	93 935,1
Farg'ona	9 728,5	13 613,8	18 661,2	21 701,2	27 761,5	30 303,5
Xorazm	4 070,4	6 457,2	8 538,6	9 615,9	13 658,1	18 323,3
Toshkent sh.	30 459,6	43 274,1	52 747,5	66 188,0	90 211,9	108 807,7

1-jadval ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, respublikamizning barcha hududlari da sanoatning o'rni ortib bormoqda. Yildan yilga hududlardagi sanoat mahsulotlari hajmi barqaror ravishda o'sib bormoqda. Birgina misol tarzda 2022-yilga nisbatan sanoat mahsulotlarining hajmi o'sish ko'rsatkichi 21,3 foizga yoki 97 209 mlrd. so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin. Buni shu bilan izohlash mumkinki, mamlakatda sanoatni rivojlantirish maqsadida yaratilgan imkoniyatlar va investitsiyalarning mavjudligi iqtisodiyotning doimiy rivojlanib borishini ta'minlamoqda.

2022-yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Mamlakatga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 3,3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko'rsatkich uch barobar ortib, 9,8 milliard AQSh dollariga yetdi. Shu bilan birga, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 2,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 3,4 barobar oshib, 8,5 milliard AQSh dollari yetdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi esa 17,7 foizdan 35,4 foizgacha oshdi.


Sanoatni rivojlantirish uchun yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi 113,2 trillion so'mga oshgan. Bu esa iqtisodiyotga kiritilayotgan jami investitsiyalarning salkam yarmi 49,9 foiz demakdir. Bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 6,2 foiz punktga yuqoridir. Jumladan, tog'-kon sektoriga kiritilgan investitsiyalar ulushi 9,9 foizga, ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 28,9 foizga, energiya ta'minoti sohasiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 7,9 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda tarmoqlarni tartibga solish va manzilli qo'llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita dastaklaridan foydalanish natijalari ko'rsatkichlariga to'xtalsak. Bunda tog'-kon sanoatida ishlab chiqarish hajmini barqarorlashtirish 100,4 foizni tashkil etdi. Energiya ta'minotida o'sish sur'atini saqlab qolish 108,9 foiz, qayta ishslash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish sur'atini oshirish esa 106,4 foizni tashkil etgan [11].

2022-yilda yurtimizda sanoat 5,3 foiz o'sgan. Lekin 65 ta yirik hududiy korxonada ishlab chiqarish kamaygan. Davlat tomonidan mablag' ajratilgan bo'lsa-da, 118 ta sanoat zonasiga haligacha infratuzilma olib borilmagan. Eksportda GSP+ imkoniyatidan yetarlicha foydalanilmayapti. Ma'lumki, O'zbekiston 2021-yili Yevropa Ittifoqining GSP+ nomli kengaytirilgan preferensiyalar tizimiga qabul qilingan edi. Uning doirasida 6 ming 200 dan ortiq mahsulot turlarini Yevropa

bozoriga imtiyozli shartlarda eksport qilish mumkin. Buning uchun davlatimiz tomonidan transport xarajatlariga 70 foizgacha subsidiya ham berilmoqda. Lekin to'qimachilik mahsulotlari eksportining 6 foizi, elektr texnikasining 3 foizi, ipak va oziq-ovqatning 1 foizi Yevropaga sotilayapti, xolos [12].

Yurtimizda 2023-yilning keyingi yarim yilligida investitsiya dasturlaridagi 1 ming 500 ta

loyihani tezlashtirish va 12 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyani o'zlashtirish bo'yicha qo'shimcha vazifalar belgilangan edi. Shuningdek, hukumat komissiyasi tomonidan iqtisodiyotga katta turtki beradigan 97 ta yirik sanoat loyihasi tayyorlandi. Ular orqali 6,7 milliard dollar o'zlashtirilib, 3 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish, 27 mingdan ortiq ish o'rni yaratish imkoniyati yaratildi [12].



1-rasm. Sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) o'sish sur'atlari (choraklik) [13]


1-rasm ma'lumotlari shundan dalolat beradi, sanoatning rivojlanishi hududlar kesimida 2023-yil oxirida deyarli tenglikni ko'rsatmoqda. 2022-yil 1-chorakda Andijon viloyati sanoatining o'sish ko'rsatkichi respublikada eng yuqori natijani ko'rsatgan, buning asosiy sababi sufatida viloyatda kiritilgan investitsiya mablag'larining yuqori darajada o'zlashtirilganligidandir va 2023-yil 1-chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoat sohasida salbiy natijalar kuzatilgan (-11,9 %), bugungi kunlarga kelib esa ajratilgan qo'shimcha imtiyoz va investitsiyalar hisobiga sanoatning ulushi 2022-yil 4-choragiga nisbatan 2,3 foizga o'sdi.

Shu bilan birga, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hamda yengil sanoatning yirik tarmoqlari: ip yigiruv va to'qimachilik sanoati sezilarli darajada, doimiy yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni tizimli ravishda kengaytirish kelgusi davr sanoat majmuyidagi tarkibiy o'zgarishlarning muhim ustuvor yo'nallishlari hisoblanadi.

Tahlil ma'lumotlari shundan dalolat bermoddaki, o'tgan davr mobaynida sanoatdagagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida tarmoqning mamlakat

iqtisodiyotidagi ulushi, mahsulot ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Lekin hali mamlakatimiz sanoati rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanyapti, deb bo'lmaydi. Bu jarayon quyidagi omillar bilan bog'liq: ayrim sanoat korxonalarida mavjud kapitalning moddiy va ma'nnaviy jihatdan eskirganligi; ayrimlarida moddiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi past darajada ekanligi, ko'p hollarda sanoat korxonalarining ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqarayotganligi va hokazo.

Quyida 2-rasmda sanoat mahsulotlari deflyatorini kuzatadigan bo'lsak, ya'ni joriy yilda sanoat mahsulotlari hajmi va bazis yilda hisoblangan sanoat mahsulotlari hajmi nisbati 2022-yil 2-chorakda eng yuqari natijani – 21,6 foiz o'sishni, 2023-yil 1-chorakda esa 7,4 foizgacha kamayishni kuzatish mumkin. 2023-yil 4-choragida deflyator ko'rsatkichi 9,8 foizni tashkil qilgan. Demak, investitsiyalar va ularning yuqori darajada o'zlashtirilishi sanoatda katta siljishlarga yordam beradi.



2-rasm. Sanoat mahsulotlarining deflyator indeksi (choraklik) [13]

Sanoatdagi ushbu tarkibiy o'zgarishlar quyidagi yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni talab etadi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish orqali chinakam mulkdorlar sinfini yanada ko'paytirish;

- kichik va o'rta korxonalar ulushini oshirish orqali majmuada raqobat muhitini shakllantirish, mavjud monopol korxonalar sonini imkon qadar tugatish;

- avvaldan shakllangan, xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan tarmoqlardan voz kechish, ularning o'rnida tayyor mahsulot tayyorlovchi quvvatlarni barpo etish;

- moddiy (yer, kapital) va shaxsiy-insoniy (mehnat, tadbirkorlik) resurslardan samarali foydalaniш, shu orqali ishlab chiqarishni innovatsion yo'l bilan rivojlantirish;

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi subyektlar erkin faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham huquqiy kafolat berish;

- xususiy lashtirish natijasida tashkil etilgan sanoat korxonalariga ma'lum davr davomida oldingi faoliyatini saqlab qolish talabidan voz kechish. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibini tubdan o'zgartirish, talab va ehtiyoj katta bo'lgan, import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi;

- jahon bozoriga O'zbekiston sanoat mahsulotlari kirib borishi uchun zamonaviy xorijiy firmalar tajribasi va texnika-texnologiyalarini mamlakat sanoatiga joriy etish, buning uchun qulay investitsion muhit yaratish;

- mavjud ishlab chiqarish tajribalari, mala-kali kadrlar salohiyati va barcha intellektual mul-kni bosqichma-bosqich rivojlantirish;

- shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'yilgan maqsadlarni muvafaqqiyatlari amalga oshirishga yo'naltirilgan qarorlarni ish faoliyatiga izchil tatbiq etuvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

- ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalari tomonidan imtiyozlar yaratish, moliyaviy mablag'larni maqsadli yo'nalishlarga jalb etish.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi soha korxonalari mablag'lari va resurslari ko'payganligini anglatadi. Davlat tomonidan soliq yukini qisqartirish, budget-soliq siyosatini erkin-lashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish borasida olib borilayotgan maqsadli va uzoq mud-datli barqaror rivojlanishni ta'minlovchi siyosat YaIMning oshishi va unda sanoat mahsulotlari ulushining ortishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston sanoat majmuyida qayta ishslash tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish uchun ishlab chiqilgan dasturlar samarasi hamda jahon bozorida sanoat mahsulotlariga, jumladan, oziq-ovqat, yengil va mashinasozlik sanoatlari mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi, pirovard natijada, sanoat ishlab chiqarishining qo'shimcha o'sishiga olib keldi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tuzilmasiga e'tiborni qaratsak, mustaqillikning o'tgan davrida yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishslash tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan o'sayotganini ko'rishimiz mumkin.

Mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hamda yengil sanoatning yirik tarmoqlari: ip yigiruv va to'qimachilik sanoati sezilarli darajada, doimiy yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bozor islohotlarini tizimli ravishda kengaytirish, kelgusi davr sanoat majmuyidagi tarkibiy o'zgarishlarning muhim ustuvor yo'naliishlari hisoblanadi. Sanoat tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari mazkur tarmoqlarda yaratilayotgan mahsulotlarga bo'lgan ichki va tashqi talab ko'lamiga bog'liq.

Mamlakat aholisining real daromadi va xarid qobiliyatini yanada oshirishda iste'mol krediti tizimini keskin kengaytirish va takomillashtirish sanoat majmuyida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshiruvchi ichki talab ulushi oshishi bilan tavsiflanadi. Sanoatda yaratiladigan mahsulotlarga jahon bozoridagi bahoning qulay konjunkturaga ega bo'lishi, xalqaro iqtisodiy integratsianing kuchayishi sanoat rivojlanishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi va tashqi omil ta'sirining oshishi bilan tavsiflanadi. Sanoat majmuyida amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlarda davlatning soliq-budget siyosati, baho va pul-kredit siyosati, umuman, iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha amalga kiritilayotgan chora-tadbirlar natijasida bir qator ijobji siljishlarga erishildi. Sanoat korxonalarini isloh qilish, tarkibiy qayta tuzish, sanoatda xususiy mulk ulushining yanada oshishi, tarmoq korxonalarini boshqaruvini bozor tamoyillari asosida shakllantirish sanoat rivojlanishida muhim rol o'yaydi.

Xulosa va takliflar. Tahlil ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, o'tgan davr mobaynida sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi, mahsulot ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Lekin hali mamlakatimiz sanoati rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilayapti, deb bo'lmaydi. Bu jarayon quyidagi omillar bilan bog'liq :

- moddiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi past darajada ekanligi;
- sanoat majmuyiga kiritilgan investitsiyalar tarmoq mahsulotlari eksporti salmog'ining oshishiga hissa qo'sha olmayotganligi, asosan ichki bozor uchun mahsulot yetkazib berish bilan cheklanishi;
- sanoat korxonalarida mavjud kapitalning moddiy va ma'naviy jihatdan eskirganligi, natijada mahsulot yaratishda tannarxning yuqori darajaga chiqib ketishi, sifat darajasi bo'yicha import mahsulotlar sifati bilan raqobatlasha olmayotganligi, elektr energiyasi va qo'l mehnatidan foydalanish qisqarmaganligi.

Ushbu muammolar sanoatda tarkibiy investitsion siyosatni yanada takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi quyidagi yo'naliishlarni taklif etamiz:

- sanoat tarmog'ini barqaror rivojlantirish, uning yetakchi sohalarini moliyaviy ta'minlash uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ni jalg etish mexanizmini takomillashtirish;
 - sanoat sohasiga zamonaviy turdag'i va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradigan yangi texnologiyalarni kiritish;
 - sanoat tarmog'ini unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar bilan aloqalarini takomillashtirish;
 - xorijiy tajribalarga asoslangan holda mahsulotlar sotish tizimini takomillashtirish uchun marketingdan kengroq foydalanish;
 - investitsion ishlab chiqarishni rivojlanish, keng ko'lamli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan loyiham ishlab chiqish;
 - korxonalarda innovatsion salohiyatni takomillashtirish, ilm va yuqori texnologiya talab qiladigan yangi korxonalar tashkil etish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish;
 - tarmoqda ishlayotgan ishlovchilarning doimiy ravishda malakalarini oshirib borish;
 - rivojlangan mamlakatlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi zamonaviy texnika-texnologiyalarini import qilish siyosatini jadallashtirish;
 - sanoatda xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlik ulushini oshirish;
 - diversifikatsion faoliyatni takomillashtirish, ichki zaxira va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ta'minlash lozim bo'ladi.
- Bugungi kunda sanoatni rivojlanirishning asosiy omillari quyidagilar bo'lishi ko'zda tutilmoqda:
- qurilish materiallari industriyasini rivojlanirish;
 - sanoatni rivojlanirishda bank kreditlari ta'sirchanligini oshirish;
 - sanoatni rivojlanirishda qo'shma korxonalarining ulushini oshirish;
 - mahalliy xomashyonini qayta ishslash;
 - mahalliylashtirish dasturi va Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida yaratilgan imtiyoz va preferensiyalardan keng foydalanish;
 - ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti ko'lamenti kengaytirish, kichik korxonalar mahsulotlarini eksportga yo'naltirishga ko'maklashish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, respublikada amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakat makroiqtisodiy barqaror-

ligining oshishi bilan birga, aholi turmush farovonligiga ijobiy ta'sir etmoqda va ularning davom ettirilishini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреев А. Основы региональной экономики: учебник для вузов. – М.: КноРус, 2012. – 334 с.
2. Положенцева Ю.С., Клевцова М.Г. Трансформация развития промышленного комплекса в условиях цифровой экономики. // Вестник ГУУ. 2021. № 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-razvitiya-promyshlennogo-kompleksa-v-usloviyah-tsifrovoy-ekonomiki>.
3. Ветрова Елена Николаевна, Лапочкина Людмила Викторовна. Трансформация промышленного развития на современном этапе развития экономики. // π-Economy. 2016. № 3 (245). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-promyshlennogo-razvitiya-na-sovremennom-etape-razvitiya-ekonomiki>.
4. Қурбонов Ж.Қ. Саноатни модернизациялаш Ўзбекистон иқтисодиётининг рақобатдошлигини ошириш воситаси сифатида. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали. 2-сон, март-апрель, 2017 йил.
5. Махмудов Н.М., Хомидов С.О., Авазов Н.Р. Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида саноат тармоқларини ривожлантириш. Монография. – Т.: ТДИУ, 2020 й. – 235 б.
6. Ортиков А. Саноат иқтисоди. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2009. – 236 б.
7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1Y-го Форума экономистов. / Отв. ред. М.П.Нарзикулов. – Т.: Baktria Press, 2012. С.
8. Махмудов Э.Х., Ортиков А., Каримов Ф. Корхона – иқтисодиётнинг асосий бўғини. // Ҳамкор. 2010 йил 7 февраль.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagagi "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-111-soni farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
11. Абдужалирова Гузал Сайдиллаевна. (2023). Ўзбекистон Республикаси саноат корхоналаридағи иқтисодий ривожланиши ҳолатининг иқтисодий-статистик таҳлили. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(5), 211-220. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/1910>
12. Исройлов Д. Ўзбекистон Республикасида инвестиция лойиҳалари ёрдамида саноат соҳасининг ҳолати ва ривожлантириши тенденциялари. // Science and innovation in the education system. 2024. Т. 3. №. 4. С. 94-101.
13. <https://siat.stat.uz/reports-filed/1870/line-data>



MARKAZIY OSIYO HUDDUDIDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Saidov Mash'al Samadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professori
Umarova Irodaxon Nuraliyevna
Toshkent arxitektura va qurilish
universiteti tadqiqotchisi

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a34

Annotatsiya. Markaziy Osiyo hududidagi mamlakatlarda qayta tiklanadigan energiya resurslaridan foydalananish samaradorligini oshirish orqali elektr energiyasiga bo'lgan talabni ta'minlash, elektr energiyasini ishlab chiqarishda foydalilanigan texnologiyalarni yangi zamонави texnologiyalarga o'zgartirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalananishni ko'paytirish, elektr energetika sohasida raqobat muhitini rivojlantirish, elektr energetika tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish masalasi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: elektr energetika, elektr energiyasini ishlab chiqarish, tabiiy monopoliya, raqobat muhiti, qayta tiklanadigan energiya manbalar, energiya resurslari, energiya obyektlari, issiqlik elektr stansiyasi, issiqlik elektr markazlari, muqobil energiya manbalar, gidroelektrstansiyasi, quyosh elektr stansiyasi, shamol elektr stansiyasi.